

HOZIRGI FORS TILIDA FE'LIY PERIFRAZALAR VA QO'SHMA FE'LLARNING GENETIK MODELLARI TAHLILI

Nazarov Vafoqul Rajabboyevich

Samarqand davlat chet tillar instituti,
Yaqin Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
Samarqand, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi fors tilidagi fe'liy perifrazalar va qo'shma fe'llarning shakllanish manbalari, diaxronik taraqqiyoti hamda struktur-semantik modellari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi analitik fe'l ifodasining ikki asosiy qatlami — grammatik perifrastik konstruksiyalar hamda leksik-kompozit predikatlarining genetik asosini va o'ziga xos farqlovchi belgilarini aniqlashdan iborat. Natijalar shuni ko'rsatdiki, fe'liy perifrazalar sifatdosh va yordamchi fe'llar asosida grammatikalizatsiyalashgan, qo'shma fe'llar esa nominal komponent hamda yengil fe'llarning (kardan - كردن, shodan - شدن, dādan - دادن, gereftan - گرفتن va b.) birikuvi natijasida sermahsul model sifatida shakllangan. Xulosada fors tilining fe'l tizimi sintetik meros va analitik innovatsiyalar uyg'unligidan iborat murakkab tarixiy sistema ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fors tili, fe'liy perifraza, qo'shma fe'l, yengil fe'l, analitik fe'l, kompleks predikat, diaxroniya, grammatikalizatsiya.

АНАЛИЗ ГЕНЕТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ ГЛАГОЛЬНЫХ ПЕРИФРАЗ И СЛОЖНЫХ ГЛАГОЛОВ В СОВРЕМЕННОМ ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются источники формирования, диахроническое развитие и структурно-семантические модели глагольных перифраз и сложных глаголов в современном персидском языке. Цель исследования — выявление генетической основы и дифференциальных признаков двух основных слоёв аналитического выражения глагола: грамматико-перифрастических конструкций и лексико-композиционных предикатов. Результаты показывают, что глагольные перифразы грамматикализировались на базе причастий и вспомогательных глаголов, тогда как сложные глаголы сформировались в результате соединения именных компонентов с лёгкими глаголами (kardan - كردن, shodan - شدن, dādan - دادن, gereftan - گرفتن и др.). В заключении обосновывается, что глагольная система персидского языка представляет

собой сложную историческую структуру, в которой взаимодействуют синтетическое наследие и аналитические инновации.

Ключевые слова: персидский язык, глагольная перифраза, сложный глагол, лёгкий глагол, аналитический глагол, комплексный предикат, диахрония, грамматикализация.

ANALYSIS OF GENETIC MODELS OF VERBAL PERIPHRASES AND COMPLEX VERBS IN MODERN PERSIAN

ABSTRACT

This article examines the sources of formation, diachronic development, and structural-semantic models of verbal periphrases and complex verbs in Modern Persian. The study aims to identify the genetic basis and distinctive features of the two major layers of analytic verbal expression: grammatical periphrastic constructions and lexical-composite predicates. The findings reveal that verbal periphrases developed through the grammaticalization of participles and auxiliary verbs, while complex verbs emerged as productive models by combining nominal elements with light verbs (kardan - کردن, shodan - شدن, dādan - دادن, gereftan - گرفتن, etc.). The study concludes that the Persian verbal system is a historically layered complex where synthetic inheritance and analytic innovations interact.

Keywords: Persian language, verbal periphrasis, complex verb, light verb, analytic verb, complex predicate, diachrony, grammaticalization.

KIRISH

Fors tilining fe'l tizimi analitik ifoda vositalarining serqirraligi bilan ajralib turadi. Bu tilda harakat va holat ma'nosi nafaqat sodda fe'llar, balki sifatdosh, yordamchi fe'llar, nominal komponentlar va yengil fe'llarning turli kombinatsiyalari orqali ham ifodalanadi. Shu sababli hozirgi fors tilini tavsiflashda fe'liy perifrazalar va qo'shma fe'llar alohida, ammo o'zaro bog'liq hodisalar sifatida talqin qilinadi. Lyudvig Paul (Ludwig Paul) erta yangi fors tilidan hozirgi bosqichgacha bo'lgan taraqqiyotni «uzluksiz va tadrijiy» (continuous and gradual) deb tavsiflaydi; demak, fors tilidagi analitik qurilmalar tasodifiy hodisa emas, balki uzoq tarixiy rivojlanish mahsulidir [Paul, 2013].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, fors tilshunosligida verbal periphrasis, complex predicate, light verb construction, compound verb kabi atamalar ko'pincha bir maydonda, o'zaro sinonimik qatorda qo'llanilsa-da, ularning lingvistik maqomi har doim ham qat'iy farqlanmaydi. Holbuki, grammatik ma'no ifodalovchi perifraza bilan yangi leksik predikat hosil qiluvchi qo'shma fe'l aynan bir xil lingvistik birlik

emas. Olivye Bonami va Polle Samvelyan (Olivier Bonami, Pollet Samvelian) «hozirgi fors tili tuslanish tizimi beshta perifrastik konstruksiyadan foydalanadi» (Modern Persian conjugation makes use of five periphrastic constructions), deb ta'kidlaydi [Bonami, Samvelian, 2015]. Yens Flayshxauer va Mojgan Neysaniy (Jens Fleischhauer, Mozghan Neisani) esa «fors tilida yengil fe'l konstruksiyalaridan keng foydalaniladi» (Persian makes extensive use of light verb constructions), deya qayd etadi [Fleischhauer, Neisani]. Mazkur ikki iqtibosning o'ziyoq fors tilida analitiklik ikki asosiy yo'nalishda – infleksion-grammatik va leksik-predikativ qatlamlarda – ro'y berishini ko'rsatadi.

Fe'liy perifraza va qo'shma fe'l masalasi fors tilshunosligida terminologik jihatdan ham murakkab bahslardan sanaladi. Ba'zi tadqiqotlarda compound verb termini keng ma'noda barcha kompleks predikatlarga nisbatan qo'llanilsa, boshqa ishlarda u faqat noverbal komponent va yengil fe'l tipidagi leksik birliklarga nisbatan ishlatiladi. Xuddi shuningdek, periphrasis termini ba'zan faqat infleksion paradigma ichidagi shakllar uchun, ba'zan esa grammatiklashayotgan ikki fe'li konstruksiyalar uchun ham qo'llaniladi. Shu bois mazkur maqolada terminlar qat'iy ishchi ma'noda qo'llaniladi: perifrastik konstruksiya – grammatik ma'no hosil qiluvchi analitik birlik, qo'shma fe'l – lug'aviy predikat hosil qiluvchi analitik birlik. Bunday metodologik aniqlik olingan natijalarning izchil bo'lishini ta'minlash uchun zarurdir.

Mazkur maqolaning maqsadi hozirgi fors tilidagi fe'liy perifrazalar va qo'shma fe'llarning genetik modellari, tuzilish tamoyillari va semantik-funksional farqlarini aniqlashdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

-birinchidan, perifraza va qo'shma fe'l tushunchalarining nazariy chegaralarini aniqlash;

-ikkinchidan, perifrazalarning diaxronik ildizlarini ko'rsatish;

-uchinchidan, qo'shma fe'llarning asosiy genetik modellarini tasniflash;

-to'rtinchidan, perifraza va qo'shma fe'l orasidagi o'tish zonalarini tavsiflash.

Tadqiqot obyekti hozirgi fors tilidagi analitik fe'l konstruksiyalari bo'lsa, tadqiqot predmeti ularning genetik, strukturaviy va semantik xususiyatlaridan iboratdir.

Tarixiy materiallar ham mazkur farqlashning o'rinli ekanligini tasdiqlaydi. L. Paulning erta yangi fors tili haqidagi kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, islomdan keyingi davrda yozuv tizimida, dialektal tafovutlarda va arabiy ta'sirda kuchayish kuzatilsada, fe'l tizimida birdaniga keskin uzilish ro'y bermagan [Paul, 2013]. Aksincha, qadimgi va o'rta forsiy davrlardan meros bo'lib kelgan qator shakllar yangi sintaktik muhitda qayta tahlil qilinib, analitik paradigmaga aylangan. Demak, hozirgi fors tilidagi perifrazalar "tayyor" holda paydo bo'lmagan; ular uzoq diaxronik taraqqiyot

va tizimli qayta qurilishning mahsulidir. Bu jihat ularni lugʻaviy qoʻshma feʻllardan ajratishda ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Feʻliy perifrazalar boʻyicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, eng avvalo, ularning grammatik paradigma tarkibidagi oʻrnini aniqlashga qaratilgan. O. Bonami va P. Samvelyan (Olivier Bonami, Pollet Samvelian) fors tilidagi beshta perifrastik konstruksiyani yagona tizim doirasida qiyoslab, perfect, passive, modal va boshqa turlarni alohida tahlil qiladi [Bonami, Samvelian, 2015]. Ushbu tadqiqotning eʼtiborli jihati shundaki, unda periferik boʻlib koʻringan konstruksiyalar ham umumiy paradigma bilan uzviy bogʻliqlikda oʻrganiladi. Shu sababli mazkur maqolada O. Bonami va P. Samvelyan yondashuvi feʻliy perifrazalarning grammatik maqomini belgilashda nazariy asos sifatida qabul qilindi.

Qoʻshma feʻllar masalasida Shtefan Myullerning (Stefan Müller) tadqiqotlari muhim oʻrin tutadi. Olim fors tilidagi kompleks predikatlar (complex predicates) haqida fikr yuritar ekan, ularning bir vaqtning oʻzida ham soʻzga xos, ham soʻz birikmasiga xos xususiyatlarga (word-like and phrase-like properties) ega ekanligini koʻrsatib oʻtadi [Müller]. Mazkur kuzatuv qoʻshma feʻllarni nafaqat sintaksis yoki morfologiya doirasidagina izohlash mumkin emasligini, balki ularni oraliq – leksik-sintaktik birliklar sifatida tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Y. Flayshxauer va M. Neysaniy (Jens Fleischhauer, Mozghan Neisani) esa ajraluvchi yengil feʻl konstruksiyalarining (light verb constructions) sintaktik harakatchanligini, yaʼni komponentlar oʻrtasiga atributiv yoki adverbial birliklar kiritilishi mumkinligini isbotlab beradi [Fleischhauer, Neisani].

Aspektual va oʻtuvchi tipdagi konstruksiyalarni oʻrganishda Azita Toligʻoniy (Azita Taleghani), shuningdek, Muhammad Raseh-Mahand va Mehdi Parizadaning (Mohammad Rasekh-Mahand, Mehdi Parizadeh) ilmiy ishlari alohida ahamiyatga molik. A. Toligʻoniy fors tili davomiylilik feʻllarida (progressivda) asosiy feʻl ham, dāštan (داشتن) yengil/yordamchi feʻli ham shaxs-son koʻrsatkichini qabul qilishini taʼkidlaydi va buni seriyali feʻl konstruksiyasiga (serial verb construction) yaqin hodisa sifatida tahlil qiladi [Taleghani, 2010]. M. Raseh-Mahand va M. Parizada esa ayrim ikki feʻlli qurilmalarni seriyali konstruksiya emas, balki grammatikalizatsiyaning turli bosqichlarida joylashgan aspektual feʻl konstruksiyalari (aspectual verb constructions) deb izohlaydi [Rasekh-Mahand, Parizadeh, 2022]. Ushbu har ikkala yondashuv maqolamizda perifraza va qoʻshma feʻl oʻrtasidagi oraliq zonani tavsiflashda metodologik tayanch boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi diaxronik, tavsifiy, komponentli hamda qiyosiy-tipologik tahlil usullarining uygʻunligiga asoslanadi. Diaxronik metod orqali erta

yangi fors tilidan to hozirgi fors tiligacha bo'lgan shakllar qiyosiy o'rganildi; tavsifiy metod vositasida zamonaviy fors tilidagi asosiy konstruksiyalar formal va semantik jihatdan bayon etildi; komponentli tahlil esa konstruksiya tarkibidagi nominal, sifatdosh, yordamchi hamda yengil fe'l elementlarining funksional yuklamasini aniqlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda ilgari surilgan terminologik va nazariy ta'riflar o'zaro qiyoslanib, mazkur maqola doirasida foydalanish uchun ishchi ta'riflar ishlab chiqildi.

Perifrazalarning genetik taraqqiyotida dialektal va uslubiy omillar ham sezilarli o'rin tutgan. L. Paul erta yangi fors tilining yagona va to'liq standartlashmaganligini, turli mintaqaviy hamda diniy an'analar tilning grammatik qiyofasiga ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi [Paul, 2013]. Demak, ayrim yordamchi fe'lli yoki sifatdoshli konstruksiyalar umumiy me'yorlashuv jarayoniga qadar parallel ravishda mavjud bo'lgan. Keyinchalik adabiy standartlashuv natijasida ayrim modellar mustahkamlanib borgan bo'lsa, boshqalarining qo'llanish doirasi toraygan. Ushbu tarixiy fonni hisobga olish zamonaviy perifrazalarni oddiy sinxronik hodisa sifatida emas, balki diaxronik tanlanish natijasi sifatida baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Fe'liy perifraza va qo'shma fe'l: nazariy farqlash mezonlari

Fe'liy perifraza deganda bitta grammatik ma'noning kamida ikki komponent orqali analitik ifodalanishi tushuniladi. Bunda konstruksiyaning markazida yangi lug'aviy birlik yasash emas, balki zamon, aspekt, mayl yoki nisbat (passivlik) kabi grammatik ma'noni hosil qilish turadi. Masalan, rafta ast (رفته است), rafta bud (رفته بود), dāsht mi-raft (داشت می‌رفت) kabi shakllar yangi fe'l emas, balki mavjud fe'lning analitik paradigmalaridir [Bonami, Samvelian, 2015; Taleghani, 2010]. Qo'shma fe'l esa, aksincha, yangi predikativ birlik yaratadi: javāb dādan (جواب دادن), tasmim gereftan (تصمیم گرفتن), kār kardan (کار کردن), qabul dāshtan (قبول داشتن) kabi birliklarda semantik yukning katta qismi noverbal komponentga o'tadi, fe'l esa predikativ tayanch vazifasini bajarib, ayrim semantik soyalarni beradi [Fleischhauer, Neisani; Müller]. Shunday qilib, sirtqi o'xshashlikka qaramay, ularning lingvistik vazifasi tubdan farq qiladi.

Mazkur ikki hodisani farqlash uchun uchta asosiy mezon taklif etish mumkin. Birinchi mezon – grammatiklik darajasi: agar konstruksiya zamon, aspekt yoki nisbat ma'nosini hosil qilsa, u perifraza hisoblanadi. Ikkinchi mezon – leksik natija: agar konstruksiya mustaqil lug'aviy predikat yaratib, lug'atda alohida birlik sifatida qayd etilishi mumkin bo'lsa, u qo'shma fe'lidir. Uchinchi mezon – tarixiy kelib chiqish: perifraza odatda yordamchi fe'llar va sifatdoshlarning grammatikalizatsiyasi natijasida shakllanadi; qo'shma fe'l esa ko'proq nominal yoki sifatiy asosning yengil

fe'l bilan leksiklashuvi mahsulidir [Paul, 2013; Müller]. Ana shu uch mezon keyingi tahlillarning metodologik markazini tashkil etadi.

Perifraza va qo'shma fe'lni farqlashda sintaktik ajraluvchanlik ham yordamchi mezon bo'lishi mumkin, biroq bu mezon mutlaq xarakterga ega emas. Ayrim qo'shma fe'llar orasiga atribut yoki zarf kirishi mumkin, ayrim perifrazalarda esa yordamchi fe'l va asosiy fe'l nisbatan yaqindan bog'langan bo'ladi [Fleischhauer, Neisani; Taleghani, 2010]. Shu sababli struktur ajraluvchanlikdan ko'ra, semantik natija va paradigmatic rol muhimroqdir. Masalan, dāram mi-ravam (دارم میروم) shaklida ikki fe'l mavjud bo'lsa-da, natija progressiv zamon ifodasidir; javāb dādan (جواب دادن) shaklida esa natija yangi predikatdir. Demak, tashqi ko'rinishdagi o'xshashlik funksional tenglikni anglatmaydi.

2. Fe'liy perifrazalarning genetik modellari

Perifrazalarning eng qadimiy va asosiy modeli «sifatdosh + kopula/yordamchi fe'l» qolipidir. L. Paul erda yangi fors tilida tugallanganlik (perfect) shakllarining holat-sifatliy (stative-adjektiv) kelib chiqishini ta'kidlab, bunday konstruksiyalar dastlab "holat"ni bildirganini ko'rsatadi [Paul, 2013]. Demak, āmade-am (آمده ام), rafte ast (رفته است), neveshte budam (نوشته بودم) kabi shakllar tarixan "kelgan holatdaman", "ketgan holatda", "yozilgan edi" singari sifatdoshga yaqin tuzilmalardan rivojlangan. Vaqt o'tishi bilan bu birliklar to'laqonli zamon paradigmasiga aylangan. Shu ma'noda perfect va plusquamperfect shakllari fors tilida periferik sintaktik birikma emas, balki uzoq tarixiy grammatikalizatsiya mahsulidir.

Perifrazalarning ikkinchi modeli – passiv va natijaviy analitik shakllardir. Erta bosqichlarda ayrim morfologik passiv qoldiqlari saqlangan bo'lsa-da, keyinchalik majhul nisbat ko'proq yordamchi fe'llar orqali ifodalanadigan bo'ldi [Paul, 2013]. Zamonaviy fors tilida bu vazifa ko'pincha shodan (شدن) orqali bajariladi: koshte shodan (کشته شدن), dide shodan (دیده شدن), gofte shodan (گفته شدن). Bu yerda markaziy natija yangi leksik fe'l yasash emas, balki mavjud fe'lning passiv paradigmasini hosil qilishdir. Shuning uchun bunday birliklar qo'shma fe'lga tashqi jihatdan o'xshasa ham, funksional jihatdan perifraza sanaladi.

Uchinchi model aspektual perifrazalar, ayniqsa, progressiv konstruksiyalardir. A. Tolig'oniy: «Fors tilidagi hozirgi va o'tgan davomiylilik zamonlari shunday yagona zamonlarki, ularda ham asosiy fe'l, ham dāstan yordamchi fe'li shaxs-son ko'rsatkichini oladi» (The present and past progressive tenses in Persian are the only tenses in which both the main verb and the minor verb dāstan receive agreement marking), deb yozadi [Taleghani, 2010]. Bu kuzatish «dāstan + mi-» shaklining oddiy yordamchi fe'l qolipi emasligini tasdiqlaydi. Dāram mi-ravam yoki dāshtand mi-neveshtand kabi shakllarda ikki fe'l bir hodisaning ichki davomiyligini ifodalaydi. M.

Raseh-Mahand va M. Parizada bunday birliklarning bir qismini shakllanayotgan aspektual fe'llar (emerging aspectual verbs) sifatida talqin qiladi, ya'ni ular to'la grammatiklashgan perifriza bilan leksik kompleks predikat orasidagi oraliq bosqichda turadi [Rasekh-Mahand, Parizadeh, 2022].

Qo'shma fe'llarning mahsuldorligi fors tilidagi leksik tejamkorlik bilan ham bog'liq. Yangi sodda fe'l yasash imkoniyati tarixan mavjud bo'lsa-da, zamonaviy tilda u juda chegaralangan va ko'proq so'zlashuv qatlamidagina kuzatiladi [Pastor, Korn, Rammer, 2024]. Bunga qarama-qarshi o'laroq, «nominal komponent + yengil fe'l» modeli deyarli cheksiz kombinatorik imkoniyat yaratadi. Masalan, ilmiy, siyosiy, diniy, maishiy va texnik sohalarda yangi tushunchani ifodalash uchun ko'pincha o'zlashma yoki mahalliy nomga kardan (کردن), shodan (شدن), dādan (دادن) singari fe'llarni biriktirish kifoya qiladi. Bu modelning yuqori mahsuldorligi aynan shundaki, u yangi tushuncha uchun alohida sintetik fe'l yasashni talab etmaydi.

3. Qo'shma fe'llarning birinchi genetik modeli: tub forsiy nominal yoki sifatliy asos + yengil fe'l

Hozirgi fors tilida qo'shma fe'llarning eng sermahsul modeli – nominal yoki sifatliy komponentning kardan (کردن), shodan (شدن), dādan (دادن), gereftan (گرفتَن), zadan (زدن), keshidan (کشیدن) kabi yengil fe'llar bilan birikuvidir. Y. Flayshxauer va M. Neysaniy yengil fe'l konstruksiyalarini (light verb constructions) noverbal preverb (non-verbal preverb) hamda semantik jihatdan yengil fe'l elementining (semantically light verbal element) birikmasi sifatida ta'riflaydi [Fleischhauer, Neisani]. Mazkur qolip orqali faoliyat, holat, jarayon, natija va baholash ma'nolari juda keng ko'lamda ifodalanadi: kār kardan (کار کردن), sedā dādan (صدا دادن), tasmim gereftan (تصمیم گرفتن), xaste shodan (خسته شدن), xaste kardan (خسته کردن). Bu holat fors tilida fe'l yasashning yetakchi yo'li sof derivatsiya emas, balki analitik-kompozit model ekanini ko'rsatadi.

Bunday birliklarda yengil fe'lning roli bir xil emas. Masalan, shodan ko'pincha holat o'zgarishi va natijaviylikni, kardan esa kauzativ-faollikni, dādan ko'pincha uzatish yoki qo'zg'atishni, gereftan esa qabul qilish yoki egallash soyasini saqlab qoladi. Shuning uchun xaste shodan va xaste kardan semantik jihatdan teng emas: birinchisi “charchamoq”, ikkinchisi “charchatmoq” ma'nosini beradi. Xuddi shuningdek, tasmim gereftan “qaror qabul qilmoq” bo'lsa, tasmim dāshtan (تصمیم داشتن) “niyat qilmoq, qarori bo'lmoq” tarzida talqin qilinadi. Demak, yengil fe'llar mutlaqo ma'nosiz emas; ular qo'shma fe'l tarkibida semantik differensiatsiyani ta'minlaydi [Fleischhauer, Neisani; Müller].

Biroq mahsuldorlik barcha yengil fe'llarda bir xil emas. E. Eshag'i va Q. Karimi Do'ston o'zlarining korpus tadqiqotlarida yengil fe'llarning mahsuldorligi ularning

semantik bo'shshish darajasi, qo'shila oladigan kontekstlari va struktur cheklovlariga bog'liqligini ko'rsatib beradi [Eshaghi, Karimi Doostan, 2021]. Ayrim fe'llar juda umumiy xarakterga ega bo'lib, turli tipdagi noverbal komponentlar bilan erkin birika oladi; ayrimlari esa ma'lum bir semantik maydon bilangina chegaralanadi. Shu sababli fors tilidagi qo'shma fe'llar tizimini oddiy "ot + fe'l" formulasi bilan tushuntirish yetarli emas; unda semantik litsenziyalash va konstruktiv cheklovlar ham mavjud.

4. Qo'shma fe'llarning ikkinchi genetik modeli: arabiy masdar va otlar + forsha yengil fe'l

Fors tili tarixidagi eng muhim tashqi omillardan biri arab tilining ta'siridir. Jon R. Perri (John R. Perry) arabiy elementlarning fors tilidagi rolini tahlil qilib, ko'plab harakat nomlari (verbal nouns) va boshqa hosila otlar fors tiliga kirib, keyinchalik analitik predikat yasashda faol qatnashganini ko'rsatadi [Perry, 2013]. Ayniqsa, standart fors tilida arabiy masdar yoki otning kardan, shodan, dādan kabi fe'llar bilan birikishi juda mahsuldor modelga aylangan: eslāh kardan (اصلاح کردن), qabul shodan (قبول شدن), mo'āmalā kardan (معامله کردن), sohbat kardan (صحبت کردن), mojādala kardan (مجادله کردن) va hokazo. Bu holat analitik strategiyaning sintetik fe'l yasalishidan ustun kelganini dalillaydi.

J. R. Perri arabiy o'zlashmalar bo'yicha shunday xulosaga keladi: «standart fors tilida analitik shakl afzal ko'riladi» (analytic is preferred in Standard Persian) [Perry, 2013]. Mazkur fikr tarixiy nuqtai nazardan juda muhim: demak, arabiy leksik qatlam fors tiliga ko'proq nom va masdar ko'rinishida kirgan bo'lib, ularning fe'lga aylanishi aynan forsha yengil fe'llar yordamida amalga oshgan. Shuning uchun hozirgi fors tilidagi ko'plab qo'shma fe'llar ichki forsiy model va tashqi arabiy leksik qatlamning birikish nuqtasida vujudga kelgan gibrid konstruksiyalar sifatida baholanishi o'rindir. Bu model, ayniqsa, ilmiy, rasmiy, diniy va mavhum ma'no maydonlarida eng yuqori mahsuldorlik ko'rsatadi [Perry, 2013; Eshaghi, Karimi Doostan, 2021].

Arabiy elementlarning roli bu o'rinda alohida qayd etilishi kerak. J. R. Perri arabiy o'zlashmalar orasida mavhum va ilmiy soha so'zlari, xususan, harakat nomlari (verbal nouns) yuqori ulushga egaligini ta'kidlaydi [Perry, 2013]. Bu holat qo'shma fe'llar taraqqiyoti uchun juda qulay material yaratadi, chunki masdar tipidagi elementlar predikativlashishga tayyor bo'lgan semantik bazani taqdim etadi. Natijada eslāh kardan (اصلاح کردن), taqviyat kardan (تقويت کردن), tahlil kardan (تحليل کردن), mohokama kardan (محاكمه کردن) singari birliklar nafaqat adabiy til, balki ilmiy uslubning ham asosiy mexanizmlaridan biriga aylangan. Bunday birliklarda noverbal

komponent leksik markaz bo‘lib, yengil fe‘l esa konstruktiv tayanch vazifasini bajaradi.

5. Qo‘shma fe‘llarning uchinchi genetik modeli: semantik ixtisoslashgan yengil fe‘llar tizimi

So‘nggi yillarda fors tilidagi yengil fe‘llarning mahsuldorligi va semantik yukini maxsus o‘rgangan tadqiqotlar paydo bo‘ldi. E. Eshag‘i va Q. Karimi Do‘ston 21 ta yengil fe‘lni korpus materiallari asosida tahlil qilib, ularning mahsuldorligi bir xil emasligini va bu holat semantik “yengillashish” darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini isbotlaydi [Eshaghi, Karimi Doostan, 2021]. Mualliflar ta’kidlashicha, ayrim fe‘llar ko‘proq konstruksiya markaziga aylangan bo‘lsa, ayrimlari faqat chegaralangan kontekstlardagina ishlaydi. Ushbu natija qo‘shma fe‘llarning tasodifiy emas, balki ichki tizimli mexanizm asosida kengayishini ifodalaydi.

2020–2024-yillarda chop etilgan tadqiqotlar ham ayni xulosani mustahkamlaydi. Bahrami-Xurshid va G‘orbonpur (Bahrami-Khorshid, Ghorbanpour) fors tilidagi inkorporativ tipdagi ot-fe‘l (NV) ketma-ketliklarni konstruksion yondashuv (constructionist approach) orqali tahlil qilib, ularni kvazi-inkorporatsiya (quasi-incorporation) sifatida talqin qiladi [Bahrami-Khorshid, Ghorbanpour, 2021]. Pastor, Korn va Rammer (Pastor, Korn, Rammer) esa og‘zaki-kollegial fors tilida yangi sodda fe‘llarning qisman tiklanish jarayoni kuzatilayotgan bo‘lsa-da, baribir yangi verbal birliklar hosil qilishning eng ustuvor modeli qo‘shma fe‘llar ekanini qayd etadi [Pastor, Korn, Rammer, 2024]. Demak, zamonaviy fors tilining umumiy tendensiyasi hamon analitik predikatsiya foydasiga xizmat qilmoqda.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qo‘shma fe‘llar nafaqat tarixiy, balki kognitiv va konstruksion jihatdan ham izchil tizim hisoblanadi. Bahrami-Xurshid va G‘orbonpur NV ketma-ketliklarni konstruksion nuqtai nazardan tahlil etib, ularning an’anaviy va nomlashga arzigulik faoliyatni (nameworthy and conventional activity) ifodalashga moyilligini yoritadi [Bahrami-Khorshid, Ghorbanpour, 2021]. Bu degani, qo‘shma fe‘llar oddiy sintaktik erkin birikma emas, balki ma’no va shaklning barqaror juftligidir. Demak, tarixiy kelib chiqishiga ko‘ra erkin bo‘lgan birikmalar keyinchalik konstruksiya sifatida leksiklashadi.

6. Perifraza va qo‘shma fe‘l orasidagi o‘tish zonalari

Fors tilidagi ayrim konstruksiyalarni qat’iy ikki guruhdan biriga kiritish qiyin masala hisoblanadi. Ayniqsa, aspektual ikki fe‘lli birliklar, progressiv shakllar va ayrim grammatikalashayotgan kompleks predikatlar perifraza bilan qo‘shma fe‘l orasidagi oraliq maydonni tashkil qiladi [Taleghani, 2010; Rasekh-Mahand, Parizadeh, 2022]. Bunday hollarda tashqi shakl emas, balki funksional natija asosiy mezon qilib olinishi kerak: agar konstruksiya yangi lug‘aviy predikat yaratayotgan

bo'lsa, u qo'shma fe'lga yaqin; agar u faqat grammatik ma'noni ifodalasa, perifraza hisoblanadi. Shu ma'noda, fors tilida analitiklik qat'iy chiziqli emas, balki uzluksiz kontinuum (continuum) shaklida namoyon bo'ladi.

Hozirgi fors tilining yozma va og'zaki qatlamlari bu masalada bir xil ko'rinishga ega emas. Pastor, Korn va Rammer internet forumlari, bloglar hamda xabar almashish platformalaridagi materiallar asosida ayrim yangi sodda fe'llarning qayta faollashayotganini ko'rsatadi [Pastor, Korn, Rammer, 2024]. Ammo mualliflar hamon yangi verbal birliklar hosil qilishning asosiy va eng tabiiy yo'li qo'shma predikatlar ekanligini inkor etmaydi. Bu fakt zamonaviy fors tilining dinamikasini tasdiqlaydi: bir tomondan, tarixiy sodda fe'l yasalishi imkoniyati butunlay yo'qolib ketmagan; ikkinchi tomondan esa, eng me'yoriy va keng qo'llanadigan model hanuz qo'shma fe'llardir.

Quyidagi jadvalda maqola doirasida ajratilgan asosiy genetik modellar umumlashtirildi.

Turi	Genetik model	Misollar	Asosiy vazifasi
Fe'liy perifraza	Sifatdosh + kopula / yordamchi fe'l	rafte ast (رفته است), rafte bud (رفته بود)	Perfect (tugallanganlik), natijaviylik, zamon paradigmasini hosil qilish
Fe'liy perifraza	Aspektual ikki fe'lli model	dāram mi-ravam (دارم میروم)	Davomiylik, progressiv zamon va aspektual ma'no ifodalash
Qo'shma fe'l	Tub forsiy nominal yoki sifatiy asos + yengil fe'l	kār kardan (کار کردن), xaste shodan (خسته شدن)	Yangi leksik predikat yaratish
Qo'shma fe'l	Arabiy masdar yoki ot + forscha yengil fe'l	eslāh kardan (اصلاح قبول), qabul shodan (قبول شدن)	O'zlashma leksik asosdan yangi analitik predikat yasash
Qo'shma fe'l	Semantik ixtisoslashgan yengil fe'llar tizimi	javāb dādan (جواب دادن), tasmim gereftan (تصمیم گرفتن)	Qo'shma predikat tarkibidagi semantik soyalarni differensiatsiya qilish

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, hozirgi fors tilida perifraza va qo'shma fe'llar bir-biridan mutlaqo ajratilgan hodisalar emas; aksincha, ular umumiy analitik fe'l maydonining turli zonalarini tashkil etadi. Birinchi zonada grammatika ustunlik qiladi, ya'ni shakl umumiy paradigma tarkibidagi aniq bir vazifani bajaradi; ikkinchi zonada esa leksikallashuv (lug'aviylashuv) va predikativlik markazga chiqadi. Natija o'laroq, fors tilining fe'l tizimida, bir tomondan, tarixiy grammatikalizatsiya, ikkinchi tomondan esa sermahsul leksik kompozitsiya o'zaro parallel ravishda amal qiladi.

Shu jihatdan olib qaraganda, hozirgi fors tilini faqatgina "qo'shma fe'llar tili" yoki faqat "perifrastik konyugatsiya tili" deb ta'riflash biryoqlama yondashuv bo'lar

edi. Aslida, mazkur til tarixiy nuqtai nazardan sintetik va analitik usullar tutashgan makonda rivojlangan, biroq uning zamonaviy bosqichida analitik strategiya, xususan, yengil fe'lli predikatlar tizimi yaqqol ustunlik qilmoqda [Bonami, Samvelian, 2015; Fleischhauer, Neisani; Perry, 2013; Pastor, Korn, Rammer, 2024].

XULOSA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi fors tilida fe'liy perifrazalar va qo'shma fe'llar garchand bir xil shakliy maydonda namoyon bo'lsa-da, ularning genetik manbai va funksional tabiati bir-biridan tubdan farq qiladi. Fe'liy perifrazalar asosan sifatdosh va yordamchi fe'llar asosidagi tarixiy grammatikalizatsiya mahsuli bo'lib, zamon, aspekt va majhul nisbat (passivlik) kabi grammatik ma'nolarni analitik usulda ifodalaydi. Qo'shma fe'llar esa nominal, sifatliy yoki o'zlashma komponentning yengil fe'l bilan birikuvi natijasida shakllanib, yangi leksik predikat hosil qiluvchi konstruksiyalar sifatida xizmat qiladi.

Maqola doirasida uchta asosiy genetik model tasniflandi: 1) «sifatdosh + yordamchi fe'l» tipidagi perifrastik model; 2) «tub forsiy nominal yoki sifatliy asos + yengil fe'l» modeli; 3) «arabiy masdar va otlar + forscha yengil fe'l» modeli. Bundan tashqari, aspektual ikki fe'lli birliklar va grammatikalashayotgan kompleks predikatlar mazkur ikki hodisa o'rtasidagi o'tish (oraliq) zonasini tashkil etishi qayd etildi. Shunday qilib, hozirgi fors tilining fe'l tizimi tarixiy qatlamlashgan, semantik jihatdan differentsiyalashgan va tipologik jihatdan kuchli analitiklashgan murakkab sistema sifatida baholanishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalari fors tilining tarixiy grammatikasi, tipologiyasi va zamonaviy fe'l yasalishi masalalarini chuqurroq talqin qilishga xizmat qiladi. Kelgusida korpus materiallariga tayangan statistik tahlillarni amalga oshirish, zamonaviy so'zlashuv fors tilidagi yangi qo'shma fe'llarni tadqiq etish, shuningdek, fors, dariy va tojik adabiy standartlaridagi analitik konstruksiyalarni qiyosiy o'rganish ushbu ilmiy yo'nalishni yanada boyitishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI / REFERENCES

1. Alamov, S. R. (2025). A Comparative Study of the Terms “Tourism” (Siyāḥa) and “Visitation” (Ziyāra) Within the Field of Tourism (in the context of Arabic, Persian, and Uzbek languages). – *Oriental Journal of Philology*. – Vol. 5, No. 3. – 354-365 p. – DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-03-38. (in English)
2. Bahrami-Khorshid, S., Ghorbanpour, A. (2021). Incorporation or quasi-incorporation? A constructionist account in Persian. – *Studia Linguistica*. – Vol. 75, No. 3. – 575-598 p. (in English)

3. Bonami, O., Samvelian, P. (2015). The diversity of inflectional periphrasis in Persian. – Journal of Linguistics. – Vol. 51, No. 2. – 327-382 p. (in English)
4. Chorshanbiyevich, Q. B. (2024). On the translation of Persian complements. – Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – Vol. 4. – 266-269 p. (in English)
5. Eshaghi, M., Karimi Doostan, G. (2021). The Persian light verbs' productivity. – Pazhuheshha-ye Zabani. – Vol. 12, No. 2. – 1-28 p. (in English)
6. Pastor, D., Korn, A., Rammer, C. (2024). Colloquial Persian: Towards a new rise of simple verbs? – Transactions of the Philological Society. – Vol. 122, No. 1. – 21-48 p. (in English)
7. Paul, L. (2013). Persian language i. Early New Persian. – Encyclopaedia Iranica. – URL: <https://www.iranicaonline.org/articles/persian-language-1-early-new-persian>. (in English)
8. Perry, J. R. (2013). Arabic language V. Arabic elements in Persian. – Encyclopaedia Iranica. – URL: <https://www.iranicaonline.org/articles/arabic-v>. (in English)
9. Peysikov, L. S. (1975). Leksikologiya sovremennogo persidskogo yazika. Lexicology of the modern Persian language. – Moscow: Moscow State University. – 207 p. (in Russian)
10. Qurbonov, B. (2025). O'zbek tilidagi forscha o'zlashmalar xususida. – Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 5, No. 3. – 450-455 p. (in Uzbek)
11. Rahmatovich, A. S. (2024). Pilgrimage Tourism Terms and Their Translation Issues. Ziyorat turizmi atamalari va ularning tarjima masalalari. – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 277-283 p. (in Uzbek)
12. Rasekh-Mahand, M., Parizadeh, M. (2022). Aspectual verb constructions in Persian. – Iranian Studies. – Vol. 55, No. 4. – 993-1013 p. (in English)
13. Raxmatovich, A. S. (2025). Linguistic Features of Historical and Modern Terms in the Lexicon of the Tourism Sphere. Turizm sohasi leksikasida tarixiy va zamonaviy terminlarning lingvistik xususiyatlari. – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 250-257 p. (in Uzbek)
14. Rubinchik, Yu. A. (1981). Osnovi frazeologii persidskogo yazika. Fundamentals of Persian phraseology. – Moscow: Nauka. – 276 p. (in Russian)
15. Rubinchik, Yu. A. (1983). Persidsko-russkiy slovar. Persian-Russian dictionary. Vol. 2. – Moscow. – 1613 p. (in Russian)

16. Rubinchik, Yu. A. (2001). Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazyka. Grammar of the modern Persian literary language. – Moscow: Vostochnaya literatura RAN. – 600 p. (in Russian)
17. Taleghani, A. H. (2010). Persian progressive tense: Serial verb construction or aspectual complex predicate? – Iranian Studies. – Vol. 43, No. 5. – 607-619 p. (in English)